

**BOLA ASRAB OLGAN OILA BILAN OLIB BORILADIGAN
IJTIMOIY-PEDAGOGIK FAOLIYAT**

Gulyamnazarova Komola “*University of Management and Future Technologies*” universiteti 555-23 guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bola asrab olgan oilalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyatning ahamiyati, shakllari va usullari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida asrab olgan oilalarga ko‘rsatiladigan psixologik, pedagogik va ijtimoiy yordam turlari, shuningdek, bola tarbiyasida duch kelinadigan asosiy muammolar va ularni hal etish yo‘llari o‘rganildi. Maqolada bola asrab olish jarayoni bolalar va oilalar hayotida qanday ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi hamda ushbu oilalarni qo‘llab-quvvatlash tizimi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. bola asrab olish, ijtimoiy-pedagogik faoliyat, oilaviy tarbiya, psixologik yordam, bolalar moslashuvi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, pedagogik maslahat, bola huquqlari

Kirish. Jamiyatning rivojlanishi va barqarorligi ko‘p jihatdan sog‘lom oilaviy munosabatlarga bog‘liq. Har bir bola oilada mehr-muhabbat va e’tibor bilan ulg‘ayishi, jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida shakllanishi lozim. Biroq turli sabablarga ko‘ra ota-onasiz qolgan bolalar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Ushbu muammoga yechim sifatida bola asrab olish instituti rivojlanib, u jamiyatda muhim ijtimoiy hodisa sifatida qaralmoqda.

Bola asrab olish bu nafaqat bolani huquqiy jihatdan yangi oilaga qabul qilish, balki uning jismoniy, psixologik va ma’naviy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash jarayonidir. Asrab olingan bolalar o‘z oilasi, ya’ni biologik ota-onalari mehridan mahrum bo‘lgani sababli, ular yangi muhitga moslashishda turli qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Ayniqsa, bu jarayonda bola va oilaning psixologik tayyorgarligi, pedagogik yondashuv va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, bola asrab olgan oilalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat alohida e’tiborga loyiq. Bunday faoliyat orqali bolalarning oilaviy muhitga

tezroq moslashishiga, ularning psixologik holati barqarorlashishiga hamda sog'lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga ko'maklashish mumkin. Asrab olingan bolalar bilan ishlashda psixolog, pedagog, ijtimoiy xodimlar va huquqshunoslarning hamkorligi zarur bo'lib, bu jarayonda turli metodik yondashuvlar qo'llaniladi.

Ushbu maqolada bola asrab olgan oilalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mohiyati, asosiy tamoyillari, samarali yondashuvlari va muammolari tahlil qilinadi. Shuningdek, asrab olingan bolalar va ularning yangi oilaga moslashuvi jarayonida duch keladigan asosiy qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda bola asrab olgan oilalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mohiyatini ochib berish va uning samaradorligini aniqlash maqsadida nazariy tahlil usuli qo'llanildi. Bu usul yordamida mavzuga doir ilmiy adabiyotlar, maqolalar, monografiyalar va rasmiy hujjatlar tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida bola asrab olish jarayoni, uning pedagogik va psixologik jihatlari, shuningdek, ijtimoiy xizmatlarning roli haqida ilmiy-nazariy manbalar o'rganildi. Shuningdek, maqolada foydalanilgan asosiy manbalar va ilmiy adabiyotlar tanlab olinib, ularning mazmuni tahlil qilindi. Asosiy e'tibor bola asrab olish jarayonining o'ziga xos jihatlarga, oilaviy tarbiya uslublariga va psixologik moslashuv mexanizmlariga qaratildi. Bu tahlillar tadqiqotning nazariy bazasini shakllantirishga hamda mavzuga oid mavjud ilmiy yondashuvlarni o'rganishga xizmat qildi.

Adabiyotlar sharhi. March, Karen, and Charlene Miall "Introduction: Adoption as a family form." maqolasida Shimoliy Amerikada an'anaviy oilaviy munosabatlar qon-qarindoshlik asosida shakllanganini ta'kidlaydi. Shu sababli, asrab olingan bolalar va oilalar jamiyat tomonidan ikkinchi darajali sifatida qabul qilinishi mumkinligi muhokama qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, asrab oluvchilar va asrab olingan bolalar jamiyat tomonidan ijtimoiy tamg'alanishga uchrashi mumkin. Bundan tashqari, biologik ota-onalar ham o'z farzandlarini begonalarga topshirish natijasida hissiy yo'qotishlarni boshdan kechirishlari mumkinligi qayd etiladi. Shunday qilib, maqolada qon-qarindoshlik tushunchasining oilaviy tuzilma va shaxsiy identifikatsiyaga ta'siri chuqur tahlil qilingan.

Grotevant, Harold D., and Jennifer M. McDermott "Adoption: Biological and social processes linked to adaptation." Maqolasiga qaraydigan bo'lsak farzand asrab olishning turli shakllarini va ularning bola rivojlanishiga ta'sirini o'rganadi. Mualliflar asrab olingan bolalar jismoniy, ruhiy va ijtimoiy muammolarga duch kelish ehtimoli yuqoriligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, stress holatlari (prenatal yoki postnatal) bolaning neyroendokrin tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu maqola oilaviy omillarni, xususan, asrab oluvchi va biologik oila o'rtasidagi aloqalar, turli jinsli va milliy oilalarda farzand asrab olish, transmadaniy asrab olish va irqiy ijtimoiylashuv jarayonlarini tahlil qiladi. Ushbu tadqiqot farzand asrab olishning uzoq muddatli psixologik va ijtimoiy oqibatlarini tushunishga qaratilgan.

Neil, Elsbeth ham o'zining "Making sense of adoption: Integration and differentiation from the perspective of adopted children in middle childhood" tadqiqot ishida farzand asrab olish jarayoni bolalarga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Tadqiqot Buyuk Britaniyada "Contact after Adoption" loyihasi doirasida olib borilgan va asrab olingan bolalarning o'z oilalariga va biologik ota-onalariga bo'lgan munosabatlarini o'rganishni maqsad qilgan. Maqolada bolalarning farzand asrab olish haqidagi tushunchalari, biologik ota-onalarining ularni nega tark etganliklari va bu jarayonning davomiyligi bo'yicha fikrlari tahlil qilinadi. Tadqiqot bolalarning hissiy va ijtimoiy moslashuvi, oilaviy aloqalar va kommunikatsiya ochiqligining farzand asrab olish jarayoniga ta'sirini o'rganadi.

Baxtiyorovich, Mahmarahimovlarning izlanishlari ya'ne "Madaniy farqlarning chet el fuqarolari tomonidan farzandlikka olinishiga ta'siri." chet el fuqarolari tomonidan farzand asrab olishning madaniy jihatlarini tahlil qiladi. Muallif madaniyatni muayyan guruh odamlarining e'tiqodlari, qadriyatlari va urf-odatlar bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Farzand asrab olingan bolalar o'z kelib chiqishi, biologik ota-onalari va asrab olish sabablari haqida savollar berishi mumkin. Ayniqsa, xalqaro miqyosda farzand asrab olish holatlarida bolalar o'z ona madaniyati, tili va urf-odatlaridan uzoqlashishi mumkin. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, madaniy integratsiya jarayonida bolalar o'ziga xoslik hissini shakllantirishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Madaniyat va farzand asrab olish jarayoni Madaniyat bolalarning o'zini qanday his qilishida muhim rol o'ynaydi. Asrab olingan bolalar madaniy o'ziga xoslik bilan bog'liq muammolarga duch kelishi mumkin, xususan, ularning tug'ilgan yeri, biologik ota-onalari kimligi va asrab olish sabablari haqida savollar paydo bo'lishi mumkin. Bu xalqaro miqyosda asrab olingan bolalar uchun ayniqsa muhim, chunki ular o'z ona madaniyati, tili va urf-odatlaridan ajralib qolish ehtimoliga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, madaniy moslashuv va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bolalarning ruhiy va hissiy farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, farzand asrab olgan oilalar bolalar bilan ochiq muloqot qilish va ularning madaniy ildizlarini hurmat qilish orqali ularning moslashuv jarayonini osonlashtirishi mumkin.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bola asrab olgan oilalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyatning samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq: oilaviy muhitning barqarorligi, psixologik qo'llab-quvvatlash darajasi va ijtimoiy moslashuv imkoniyatlari. Tahlillar natijasida aniqlanishicha, ijtimoiy-pedagogik yondashuvlar oilaga yangi a'zo sifatida qo'shilgan bolaning moslashuv jarayonini yengillashtiradi. Ayniqsa, ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlari, psixologik maslahatlar va pedagogik treninglar bola va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro tushunishni yaxshilashga yordam beradi. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, bola asrab olgan oilalarga muntazam ravishda pedagogik va psixologik maslahatlar berilishi ularning farzand tarbiyasida duch keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tishiga yordam beradi. Ushbu maslahatlar bolaning ijtimoiy moslashuvi, hissiy barqarorligi va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bola asrab olgan oilalar bilan tizimli ravishda olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat oilaviy muhitni mustahkamlashga, bolaning jamiyatga moslashuvini yaxshilashga va uning psixologik farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Bola asrab olgan oilalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning asosiy maqsadi bolaning to'laqonli tarbiyasi va ijtimoiy moslashuvini ta'minlash hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, pedagogik, psixologik va ijtimoiy yordam bola va oilaning o'zaro munosabatlarini yaxshilashda, farzand tarbiyasidagi qiyinchiliklarni yengishda

muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, bola asrab olgan oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash tizimi ijtimoiy xizmatlar, psixologik maslahat markazlari va ta'lim muassasalari tomonidan samarali tashkil etilganda, bolalar emosional barqarorlik, ijtimoiy moslashuv va intellektual rivojlanish jihatidan sezilarli yutuqlarga erishadi. Xulosa qilib aytganda, bola asrab olish jarayoni nafaqat bolaning yangi oilaga qo'shilishiga, balki jamiyatda o'z o'rnini topishiga ham ta'sir qiladi. Shuning uchun davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan ijtimoiy-pedagogik dasturlarni rivojlantirish, oilalarga doimiy metodik va psixologik yordam ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakllantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67.
2. Ҳайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
3. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
4. March, Karen, and Charlene Miall. "Introduction: Adoption as a family form." Family Relations (2000): 359-362.
5. Grotevant, Harold D., and Jennifer M. McDermott. "Adoption: Biological and social processes linked to adaptation." Annual review of psychology 65.1 (2014): 235-265.
6. Neil, Elsbeth. "Making sense of adoption: Integration and differentiation from the perspective of adopted children in middle childhood." Children and Youth Services Review 34.2 (2012): 409-416.
7. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.

8. Хайдаров С. (2025). Оилаларда фарзанд тарбиясига руҳий таъсир ўтказиш. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
9. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
10. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
11. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.